

O‘ZBEKISTON STANDARTLASHTIRISH, METROLOGIYA VA SERTIFIKATLASHTIRISH
AGENTLIGI BOSH DIREKTORINING
BUYRUG‘I

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SERTIFIKATLASHTIRISH TIZIMIDA
ISHLAR VA XIZMATLARGA HAQ TO‘LASH QOIDALARINI TASDIQLASH
TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 11-oktabrda ro‘yxatdan
o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2516]**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 19-apreldagi 108-son “Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2004-yil 6-iyuldagi 318-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil, 17-son, 225-modda) ijrosini ta’minlash maqsadida buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga haq to‘lash qoidalari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi tomonidan 1999-yil 28-aprelda tasdiqlangan Ishlarga haq to‘lash **tartibi** (ro‘yxat raqami 722, 1999-yil 11-may) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Bosh direktor A. KURBANOV

Toshkent sh.,
2013-yil 18-sentabr,
439-son

O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2013-yil 18-sentabrdagi 439-son **buyrug‘iga**
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga haq to‘lash
QOIDALARI**

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi, “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-avgustdagi 373-son “O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2013-yil 19-apreldagi 108-son “Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2004-yil 6-iyuldagi 318-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi va 2015-yil 14-oktabrdagi 292-son “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq, akkreditatsiya qilish, nazorat yo‘sinidagi tekshiruv, sertifikatlashtirish, xorijiy mamlakatlarning muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni va sinovlar protokollarini e‘tirof etish bo‘yicha ishlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni, shuningdek muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to‘lovlarni to‘lash tartibini belgilaydi.

(muqaddima O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2016-yil 30-martdagi 178-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2516-2, 27.04.2016-y.)tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 181-modda)

I bob. Asosiy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

1. Muvofiqlikni baholash organlari va metrologik xizmatlari o‘z faoliyatlarini akkreditatsiya qilinganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar asosida amalga oshiradilar.

(1-band O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2016-yil 30-martdagi 178-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2516-2, 27.04.2016-y.)tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 181-modda)

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimidagi ishlar va xizmatlar narxi shartnoma asosida aniqlanadi.

Bunda akkreditatsiya qilish, nazorat yo‘sinidagi tekshiruv, sertifikatlashtirish, xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish va deklaratsiyalash bo‘yicha ishlar va xizmatlarning narxini shakllantirishda xarajatlar tarkibini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to‘plami, 1999-y., 2-son, 9-modda) muvofiq amalga oshiriladi.

3. Monopolist korxonalar va tabiiy monopoliya subyektlarining akkreditatsiya qilish, nazorat yo‘sinidagi tekshiruv, sertifikatlashtirish, xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish va deklaratsiyalash bo‘yicha ishlar va xizmatlarining narxi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktabrdagi 239-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 42-43-son, 364-modda) bilan tasdiqlangan Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo‘llanilishini davlat tomonidan nazorat qilish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq aniqlanadi.

II bob. Akkreditatsiya qilish va nazorat yo‘sinidagi tekshiruv bo‘yicha ishlar va xizmatlarning to‘lovi

Oldingi tahrirga qarang.

4. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-oktabrdagi 292-son qarori bilan tasdiqlangan Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 14-bandiga muvofiq akkreditatsiya qilish (akkreditatsiya qilish sohasini kengaytirish) ishlari uchun to‘lov ariza beruvchi tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

(4-band O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2016-yil 30-martdagi 178-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2516-2, 27.04.2016-y.)tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 181-modda)

5. Natijalaridan qat’i nazar, akkreditatsiya qilish bo‘yicha ishlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar to‘lanishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

6. “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga muvofiq O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda “O‘zstandart” agentligi deb yuritiladi) o‘z vazifalarining bir qismini mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (markazlariga) (bundan buyon matnda akkreditatsiya obyekti deb yuritiladi) o‘tkazishga haqlidir.

(6-band O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2015-yil 7-maydagi 191-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2516-1, 12.05.2015-y.) tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 19-son, 238-modda)

7. Akkreditatsiya obyekti akkreditatsiya qilinganida va unga “O‘zstandart” agentligi o‘z vazifalarining bir qismini (akkreditatsiya qilish sohasini inobatga olgan holda) o‘tkazganda “O‘zstandart” agentligi va akkreditatsiya obyekti o‘rtasida bitim tuziladi hamda unga muvofiq akkreditatsiya obyekti “O‘zstandart” agentligiga bajarilgan ishlar va xizmatlar hajmidan ajratmalarni amalga oshiradi.

Akkreditatsiya obyektlarining ajratmalar miqdori “O‘zstandart” agentligi tomonidan o‘tkazilgan ishlar va xizmatlarning hajmi va turiga bog‘liq bo‘ladi hamda umumiy tushum hajmining 5 foizidan oshmasligi kerak.

8. Akkreditatsiya obyektlarining faoliyati ustidan nazorat yo‘sinidagi tekshiruv o‘tkazish uchun to‘lov “O‘zstandart” agentligi va akkreditatsiya obyekti o‘rtasida tuzilgan bitimga asosan haqiqiy sarflarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

III bob. Sertifikatlash, xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish va deklaratsiyalash bo‘yicha ishlar va xizmatlar to‘lovi

9. Mahsulotlar, xizmatlar va sifat tizimlarini sertifikatlashtirishda haqiqiy sarflarni hisobga olgan holda Mahsulotlarni sertifikatlash **qoidalarining** (ro‘yxat raqami 1458, 2005-yil 18-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 10-11-son, 86-modda) 8-bandida ko‘zda tutilgan sertifikatlashtirish bosqichlari to‘lanishi lozim.

10. Natijalaridan qat’i nazar, sertifikatlashtirish bo‘yicha ishlar va xizmatlarni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar to‘lanishi kerak.

11. Sertifikatlangan mahsulot va sifat tizimining nazorat yo‘sinidagi tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha ishlar va xizmatlarning to‘lovi, haqiqiy sarflardan kelib chiqib, muvofiqlik belgisini ishlatish huquqi bo‘yicha bitim asosida amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Xorijiy mamlakatlarning muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni va sinovlar protokollarini e’tirof etish bo‘yicha ishlar va xizmatlarning to‘lovi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-oktabrdagi 292-son qarori bilan tasdiqlangan Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi **nizom** va Mahsulotlarni sertifikatlash **qoidalariga** (ro‘yxat raqami 1458, 2005-yil 18-mart) muvofiq e’tirof etish jarayonini amalga oshirish bo‘yicha haqiqiy sarflardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

(12-band O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2016-yil 30-martdagi 178-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2516-2, 27.04.2016-y.) tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 181-modda)

13. Deklaratsiyalash yo‘li bilan mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha ishlar va xizmatlar to‘lovi Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risida **nizomga** (ro‘yxat raqami 1465, 2005-yil 6-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 14-son, 107-modda) muvofiq deklaratsiyalash yo‘li bilan mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash jarayonini amalga oshirish bo‘yicha haqiqiy sarflardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

14. Sertifikatlashtirish ishlar va xizmatlarining narxini shakllantirishda “O‘zstandart” agentligining rentabellik me‘yori “O‘zstandart” agentligi tomonidan belgilanadi hamda 20 foizdan oshmasligi lozim.

IV bob. Sertifikatlashtirish organlariga muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to‘lovlarni to‘lash

Oldingi tahrirga qarang.

15. Muvofiqlik belgisidan foydalanishni nazarda tutuvchi sxemalar bo‘yicha amalga oshirilgan sertifikatlashtirishning natijalari ijobiy bo‘lganda, mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi bilan ishlab chiqaruvchi korxonalar (sertifikatsiyaga nomzod) o‘rtasida bitim tuziladi, unga ko‘ra bitimda belgilangan muddatlarda ishlab chiqaruvchi korxonalar muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun sertifikatlashtirish organiga bir martalik to‘lovni to‘laydi.

(15-band O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2015-yil 7-maydagi 191-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2516-1, 12.05.2015-y.) tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 19-son, 238-modda)

16. Bir martalik to‘lov sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni sotishdan qo‘shilgan qiymat va aksiz soliqlarini chegirib rejalashtirilgan tushumlardan kelib chiqqan holda, muvofiqlik sertifikatini

rasmiylashtirish kunidagi respublikada belgilangan eng kam ish haqidan kelib chiqib, ushbu Qoidalarining ilovasida ko'rsatib o'tilgan miqdor asosida hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

17. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni sotishdan rejalashtirilgan tushum miqdorining tasdig'i bo'lib, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uskunasi quvvati ko'rsatilgan holda, ishlab chiqaruvchi korxonaning rahbarlik vazifalarini va buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslari, shuningdek rejalashtirish bo'limi boshlig'i (shtatlar jadvalida ko'zda tutilgan bo'lsa) imzolari bilan tasdiqlangan yozma arizasi hisoblanadi.

(17-band O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2020-yil 10-martdagi 27-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 2516-3, 19.03.2020-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2020-y., 10/20/2516-3/0337-son)

V bob. Yakuniy qoidalar

18. Ishlar va xizmatlarning haqqoniy sermashaqqatliligini aniqlashda javobgarlik, akkreditatsiya va nazorat yo'sinidagi tekshiruv bo'yicha — "O'zstandart" agentligiga, sertifikatlashtirish, xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish hamda deklaratsiyalash bo'yicha — sertifikatlashtirish organi rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

19. Mazkur Qoidalar talablariga rioya qilish ustidan davlat nazoratini "O'zstandart" agentligi amalga oshiradi.

20. Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan.

Moliya vaziri R. AZIMOV

2013-yil 18-sentabr

O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlash tizimida ishlar va xizmatlarga haq to'lash qoidalariga
ILOVA

Muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovning

DIFFERENSIAL SHKALASI

T/r	Muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovni hisoblash uchun sertifikatlashtirilgan mahsulotning uch yildagi tushum hajmining shkalasi (QQS va aksiz soliqsiz), mln so'mda	Eng kam ish haqining karrali miqdorlarida bir martalik to'lov stavkasi (har 10 mln so'mlik sertifikatlashtirilgan mahsulot tushim hajmiga)
1.	10 000 dan ko'p bo'lmagan	0,05
2.	10 000 dan yuqori	0,025

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 41-son, 555-modda; 2015-y., 19-son, 238-modda; 2016-y., 17-son, 181-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2020-y., 10/20/2516-3/0337-son)

ПРИКАЗ
ГЕНЕРАЛЬНОГО ДИРЕКТОРА УЗБЕКСКОГО АГЕНТСТВА СТАНДАРТИЗАЦИИ,
МЕТРОЛОГИИ И СЕРТИФИКАЦИИ
ОБ УТВЕРЖДЕНИИ ПРАВИЛ ОПЛАТЫ РАБОТ И УСЛУГ В НАЦИОНАЛЬНОЙ
СИСТЕМЕ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

[Зарегистрирован Министерством юстиции Республики Узбекистан 11 октября 2013 г.
Регистрационный № 2516]

Во исполнение **постановления** Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 апреля 2013 года № 108 «О внесении изменений в постановление Кабинета Министров от 6 июля 2004 года № 318 «О дополнительных мерах по упрощению процедуры сертификации продукции» (Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2013 г., № 17, ст. 225), приказываю:

1. Утвердить Правила оплаты работ и услуг в Национальной системе сертификации Республики Узбекистан согласно **приложению**.

2. Признать утратившим силу **Порядок** оплаты работ, утвержденный Узбекским государственным центром стандартизации, метрологии и сертификации 28 апреля 1999 года (рег. № 722 от 11 мая 1999 года).

3. Настоящий приказ вступает в силу со дня его официального опубликования.

Генеральный директор А. КУРБАНОВ

г. Ташкент,
18 сентября 2013 г.,
№ 439

ПРИЛОЖЕНИЕ

к приказу генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 18 сентября 2013 года № 439

ПРАВИЛА

оплаты работ и услуг в Национальной системе сертификации Республики Узбекистан

См. предыдущую редакцию.

Настоящие Правила в соответствии с законами Республики Узбекистан «О сертификации продукции и услуг», «Об оценке соответствия», постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 августа 2004 года № 373 «О совершенствовании структуры и организации деятельности Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации», от 19 апреля 2013 года № 108 «О внесении изменений в постановление Кабинета Министров от 6 июля 2004 года № 318 «О дополнительных мерах по упрощению процедуры сертификации продукции» и от 14 октября 2015 года № 292 «О мерах по реализации Закона Республики Узбекистан «Об оценке соответствия» устанавливают порядок оплаты работ и услуг по аккредитации, инспекционному контролю, сертификации, признанию выданных органами по оценке соответствия зарубежных стран сертификатов соответствия, деклараций о соответствии и протоколов испытаний, а также единовременного разового платежа за использование знака соответствия.

(пreamбула в редакции приказа генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 30 марта 2016 года № 178 (рег. № 2516-2 от 27.04.2016 г.) — СЗ РУ, 2016 г., № 17, ст. 181)

Глава I. Основные положения

См. предыдущую редакцию.

1. Органы по оценке соответствия и метрологические службы осуществляют свою деятельность на основании свидетельств об аккредитации.

(пункт 1 в редакции приказа генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 30 марта 2016 года № 178 (рег. № 2516-2 от 27.04.2016 г.) — СЗ РУ, 2016 г., № 17, ст. 181)

2. Стоимость работ и услуг в Национальной системе сертификации Республики Узбекистан определяется на договорной основе.

При этом определение состава затрат при формировании стоимости работ и услуг по аккредитации, инспекционному контролю, сертификации, признанию зарубежных сертификатов и декларированию осуществляется в соответствии с **постановлением** Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 февраля 1999 года № 54 «Об утверждении Положения о составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов» (Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан, 1999 г., № 2, ст. 9).

3. Стоимость работ и услуг предприятий-монополистов и субъектов естественной монополии по аккредитации, инспекционному контролю, сертификации, признанию зарубежных сертификатов и декларированию определяется в соответствии с **Положением** о порядке формирования, декларирования (утверждения) и установления регулируемых цен (тарифов) на товары (работы, услуги) и государственного контроля за их применением, утвержденным постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 28 октября 2010 года № 239 (Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2010 г., № 42-43, ст. 364).

Глава II. Оплата работ и услуг по аккредитации и инспекционному контролю

См. предыдущую редакцию.

4. В соответствии с **пунктом 14** Положения о порядке аккредитации и инспекционного контроля деятельности органов по оценке соответствия и метрологических служб, утвержденного постановлением Кабинета Министров от 14 октября 2015 года № 292, оплата за работы по аккредитации (расширение области аккредитации) осуществляется заявителем поэтапно.

(пункт 4 в редакции приказа генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 30 марта 2016 года № 178 (рег. № 2516-2 от 27.04.2016 г.) — СЗ РУ, 2016 г., № 17, ст. 181)

5. Оплате подлежат все расходы, связанные с проведением работ по аккредитации, независимо от их результатов.

См. предыдущую редакцию.

6. В соответствии со **статьей 5** Закона Республики Узбекистан «О сертификации продукции и услуг» Узбекское агентство стандартизации, метрологии и сертификации (далее — агентство «Узстандарт») вправе делегировать часть своих функций органам по сертификации продукции и испытательным лабораториям (центрам) (далее — объект аккредитации).

(пункт 6 в редакции приказа генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 7 мая 2015 года № 191 (рег. № 2516-1 от 12.05.2015 г.) — СЗ РУ, 2015 г., № 19, ст. 238)

7. При аккредитации объекта аккредитации и делегировании ему агентством «Узстандарт» части своих функций (с учетом области аккредитации) между агентством «Узстандарт» и объектом аккредитации заключается соглашение, в соответствии с которым объект аккредитации осуществляет отчисления от объема выполненных работ и услуг агентству «Узстандарт».

Размер отчислений объектов аккредитации зависит от объема и вида работ и услуг, делегированных агентством «Узстандарт», и не должен превышать 5 процентов от общего объема выручки.

8. Оплата за проведение инспекционного контроля за деятельностью объектов аккредитации осуществляется на основании соглашения, заключенного между объектом аккредитации и агентством «Узстандарт», с учетом фактических затрат.

Глава III. Оплата работ и услуг по сертификации, признанию зарубежных сертификатов и декларированию

9. При сертификации продукции, услуг и систем качества оплате подлежат этапы проведения сертификации, предусмотренные **пунктом 8** Правил сертификации продукции (рег. № 1458 от 18 марта 2005 года) (Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2005 г., № 10-11, ст. 86), с учетом фактических затрат.

10. Оплате подлежат все расходы, связанные с проведением работ и услуг по сертификации, независимо от их результатов.

11. Оплата работ и услуг по инспекционному контролю сертифицированной продукции и систем качества осуществляется на основании соглашения на право использования знака соответствия, с учетом фактических затрат.

См. предыдущую редакцию.

12. Оплата работ и услуг по признанию выданных органами по оценке соответствия зарубежных стран сертификатов соответствия, деклараций о соответствии и протоколов испытаний осуществляется из расчета фактических затрат на проведение процедуры признания в соответствии с **Положением** о порядке признания в Республики Узбекистан результатов оценки соответствия, осуществленной за пределами Республики Узбекистан, утвержденным постановлением Кабинета Министров от 14 октября 2015 года № 292, и **Правилами** сертификации продукции (рег. № 1458 от 18 марта 2005 года).

(пункт 12 в редакции приказа генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 30 марта 2016 года № 178 (рег. № 2516-2 от 27.04.2016 г.) — СЗ РУ, 2016 г., № 17, ст. 181)

13. Оплата работ и услуг по подтверждению соответствия продукции установленным требованиям путем декларирования осуществляется из расчета фактических затрат на проведение процедуры подтверждения соответствия продукции установленным требованиям путем декларирования, в соответствии с **Положением** о порядке декларирования соответствия продукции требованиям ее безопасности (рег. № 1465 от 6 апреля 2005 года) (Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2005 г., № 14, ст. 107).

14. Норматив рентабельности агентства «Узстандарт» при формировании стоимости работ и услуг по сертификации устанавливается агентством «Узстандарт» и не должен превышать 20 процентов.

Глава IV. Оплата единовременного разового платежа в органы по сертификации за использование знака соответствия

См. предыдущую редакцию.

15. При положительных результатах сертификации, проведенной по схемам, предусматривающим использование знака соответствия, между органом по сертификации продукции и предприятием-изготовителем (претендентом на сертификацию) заключается соглашение, в соответствии с которым предприятие-изготовитель уплачивает органу по сертификации в сроки, определенные соглашением, единовременный разовый платеж за использование знака соответствия.

(пункт 15 в редакции приказа генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 7 мая 2015 года № 191 (рег. № 2516-1 от 12.05.2015 г.) — СЗ РУ, 2015 г., № 19, ст. 238)

16. Разовый платеж рассчитывается от прогнозного объема выручки сертифицированной продукции за вычетом налога на добавленную стоимость и акцизного налога по ставкам, указанным в приложении к настоящим Правилам от минимальной заработной платы, установленной в республике на день оформления сертификата соответствия.

См. предыдущую редакцию.

17. Подтверждением прогнозного объема выручки сертифицированной продукции является письменное заявление предприятия-изготовителя за подписями лиц, осуществляющих руководящие функции и функции бухгалтерского учета и финансового управления, а также начальника планового отдела (при наличии в штатном расписании), с указанием мощности оборудования по выпуску сертифицированной продукции.

(пункт 17 в редакции приказа генерального директора Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации от 10 марта 2020 года № 27 (рег. № 2516-3 от 19.03.2020 г.) — Национальная база данных законодательства, 19.03.2020 г., № 10/20/2516-3/0337)

Глава V. Заключительные положения

18. Ответственность за достоверность определения трудоемкости работ и услуг по аккредитации и инспекционному контролю несет агентство «Узстандарт», сертификации, признанию зарубежных сертификатов и декларированию — руководители органов сертификации.

19. Государственный контроль за соблюдением требований настоящих Правил осуществляет агентство «Узстандарт».

20. Настоящие Правила согласованы с Министерством финансов Республики Узбекистан.

Министр финансов Р. АЗИМОВ

18 сентября 2013 г.

ПРИЛОЖЕНИЕ

к Правилам оплаты работ и услуг в Национальной системе сертификации Республики Узбекистан

ДИФФЕРЕНЦИРОВАННАЯ ШКАЛА

единовременного разового платежа за использование знака соответствия

№	Шкала объема выручки сертифицированной продукции за три года для исчисления единовременного разового платежа за использование знака соответствия (без НДС и акцизного налога), в млн сум	Ставка единовременного разового платежа в кратных размерах минимальной заработной платы (на каждый 10 млн сум. объема выручки сертифицированной продукции)
1.	не более 10 000	0,05
2.	свыше 10 000	0,025

(Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2013 г., № 41, ст. 555; 2015 г., № 19, ст. 238; 2016 г., № 17, ст. 181; Национальная база данных законодательства, 19.03.2020 г., № 10/20/2516-3/0337)